



**Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida «Sharaf kodeksi»ni ishlab
chiqish va tatbiq etish bo'yicha
YO'RQNOMA**

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalarida xodimlar va talabalar uchun "Sharaf kodeksini" kodeksni ishlab chiqish va uni tatbiq etishning **dolzarbligi** quyidagilarda aks etadi:

1. Talabalarda milliy qadriyatlarga, o'zi yashayotgan zaminga nisbatan ijobjiy yondashuvni kuchaytirish zarurati.
2. Talabalarga tarbiya berishda ularning dunyoqarashlari va o'zaro munosabatlari orqali ularga ta'sir etadigan mexanizm yaratish zarurati.
3. Ijtimoiy faol va "befarq" talabalarga beriladigan imkoniyatlarning farqi darajasi kamligi.
4. Talabalar bilan ish olib borishda "Kichik xatolarning katta xatolarni oldini olishi" tamoyili ishlamasligi.
5. Qator institatlarda professor-o'qituvchilar, talabalar va bitiruvchilarni bitta maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyaning va muhitning mavjud emasligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, "Sharaf kodeksi"ni tatbiq etishdan **maqsad**, talabalarda o'z kasbiga nisbatan sadoqat, ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtiga nisbatan hurmat va faxr tuyg'usini shakllantirish, bitiruvchilar bilan institut o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bitiruvchilarning yutuqlari asosida talabalarga motivatsiya berish va institut imidjini shakllantirishdan iborat.

"Sharaf kodeksi"ni amalda qo'llanilishi bo'yicha **xorijiy tajriba**, xususan Garvard instituti (AQSH), Boston Instituti(AQSH), Xalqaro Koinotni tadqiq etish instituti (Fransiya), Gras texnologiyalar instituti (Avstriya), M.V.Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya Iqtisodiyot Oliy maktabi, Sankt Peterburg instituti kabi oliy ta'lim muassasalari faoliyati chuqur o'r ganildi.

"Sharaf kodeksi"ni amalga oshirish mexanizmlari:

1. Har bitta oliy ta'lim muassasasi uning xususiyatidan kelib chiqib, namunada berilgan kodeks loyihasi asosida o'zining "Sharaf kodeksi"ni ishlab chiqadi.
2. "Sharaf kodeksi" institut Jamoatchilik kengashi tomonidan muhokama qilinib tasdiqlanadi.
3. Jamoatchilik kengashi tomonidan "Sharaf kodeksi"ni tatbiq etish bo'yicha nozirlar tayinlanadi.
3. Kodeks institut sayti, telegramm kanallari hamda bevosita uchrashuvlar orqali keng targ'ib qilinadi.
4. Nozirlar bilan hamkorlikda Ma'naviyat bo'limi tomonidan talabalarning kodeksida qayd etilgan talablarga javob berishi, ularning faolligi, yutuqlari hamda kodeks talabalarni buzish holatlari doimiy ravishda quyidagi mezonlar asosida baholanib, qayd etib boriladi.

**“Sharaf kodeksi” me’yorlariga muvofiq talabalarni baholash
MEZONLARI**

Nº	Qayd etilgan holat va faktlar	1	2	3	4	5
1	Akademik yutuqlar	A’lo	yaxshi	qoniqarli	3 tagacha qarzi bor	3 ta va undan ko‘p qarzi bor
		5	4	3	2	1
2	Ijtimoiy faollik	Xalqaro miqyosda	Respublika miqyosida	OTM miqyosida	Fakultet miqyosida	Guruqlar doirasida
		5	4	3	2	1
3	Shaxsiy yutuqlar	Xalqaro miqyosda	Respublika miqyosida	Viloyat miqyosida	Tuman, shahar miqyosida	OTM miqyosida
		5	4	3	2	1
4	Kodeksga zid bo‘lgan holatlar*	Kichik	O’rta	Katta	OTM sha’niga dog’ tushirish	Jinoyat sodir etish
		-1	-2	-3	-4	-5

Ris.1. “Sharaf kodeksi” talablarini baholash mezonlari

5. Talabalarning o‘qish davrida to‘plagan umumiyl ballari asosida unga diplom olishida qo‘srimcha kredit beriladi va ish beruvchiga talaba haqida tavsiyanoma beriladi.

6. Eng yuqori natijalarga erishgan talabalar va bitiruvchilarga ko‘krak nishoni va guvohnomalar taqdim etiladi.

“Sharaf kodeksi”ni tatbiq etish orqali erishiladigan natijalar:

1. Ish beruvchi talabaning akademik yutuqlari, ijtimoiy faolligi va shaxsiy xislatlari to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lgan holda ishga qabul qilish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Bu o‘z navbatida talabalarning o‘z kelajagiga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi va faol bo‘lishiga motivatsiya beradi.

2. Kodeksni tatbiq etish natijasida ijtimoiy faol, yaxshi natijalarga erishayotgan shu bilan birga institut ichki tartib qoidalarini buzgan talabalarning xulqi, atvori va o‘zini tutishi bo‘yicha ma’lumotlar shakllanadi. Talabalarning qizil, sariq va yashil guruhlarga bo‘linishi aniq faktlar asosida amalga oshiriladi.

3. Har bitta talabaning institut muhitida shakllangan dunyoqarashi uning jamiyatda o‘zini to‘g‘ri tutishi, o‘z kabiga sadoqatini shakllanishi, o‘qigan muassasasiga hurmatini oshirishga va institut jamoasida qadriyatlarni shakllanishiga zamin yaratadi.

4. Yil nomidan kelib chiqib qo‘yilgan ustuvor vazifalar doirasida talabalarning yutuqlari obyektiv baholanib, ularning qadri va sifatli ta’lim olishlariga e’tibor qaratiladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT
INSTITUTINING

SHARAF KODEKSI

Nukus — 2023



4
Mundarija

Kirish	4
Qoraqalpog'iston tibbiyot institutining maqsadlari.....	5
Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti jamoasi "Sharaf kodeksi"ning ma'naviy-axloqiy normalari	5
"Sharaf kodeksi"ning qo'llanilishi	9
"Sharaf kodeksi" nozirlarining huquqlari.....	10
"Sharaf kodeksi" nozirlarining vazifa va majburiyatları.....	11
"Sharaf kodeksi" normalariga rioya etilishini nazorat qilish.....	12

1. Kirish

Ushbu “Sharaf kodeksi” o‘zida Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining shonli tarixi davomida shakllangan hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi talablaridan kelib chiquvchi korporativ qadriyatlarni mujassam qiladi;

Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining Sharaf kodeksi institut pedagog va boshqa xodimlari, talabalari, doktorantlari (keyingi o‘rinlarda tegishlicha xodim, talaba, doktorant deb yuritiladi)ni korporativ qadriyatlar asosida birlashtiradi hamda ularning xulq-atvor normalarini, faoliyatining ma’naviy-axloqiy me’yorlarini belgilaydi, kasbiy odob-axloqining tamoyillari, normalari, ta’lim-tarbiya jarayoni va korporativ xulq-atvorining asosiy koidalariga rioya qilinishini, hamda ishga, o‘z o‘ziga, o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu Kodeks bizning faoliyatimizning ma’naviy-axloqiy asosi bo‘lib, bizning xatti-harakatlarimizni, qabul qiladigan qarorlarimizni tartibga soladi. “Sharaf kodeksi” Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining beba ho qadriyatlarini sharaflaydi, himoya qiladi, yanada mustahkamlaydi hamda bizning:

Strategik maqsadimizga yetishimizda;

o‘zaro hurmat-izzat, mas’uliyatlilik va boshqa yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga asoslangan korporativ madaniyatimizni bunyod qilishimizda madadkor bo‘ladi;

Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining turli kasb, daraja, avlodlar, millat vakillari bo‘lgan professor-o‘qituvchilar, xodimlari, magistrлari va talabalari ishonadigan, amal qiladigan, bir korporativ maqsad yo‘lida birdam bo‘lishga chorlaydi;

Shuning uchun ushbu “Sharaf kodeksi”ga amal qilishni har bir professor-o‘qituvchi, xodim, magistr va talaba o‘zining sharafli burchi, deb biladi.

2. Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining maqsadlari

Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining joriy maqsadi — zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash asosida bozor iqtisodiyoti talablariga mos raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining strategik maqsadi — ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, jahon talablari darajasiga ko‘tarish orqali jahon institutlarining 1000 taligiga kirish, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari orasida liderlik pozitsiyasini qo‘lga kiritish va saqlab qolishdir.

3. Qoraqalpog’iston tibbiyot instituti jamoasi “Sharaf kodeksi”ning ma’naviy-axloqiy normalari

4. Jamoaning umumiyl burchlari

Biz — QTI jamoasi, har birimiz ushbu Sharaf kodeksiga amal qilsak, Qoraqalpog’iston tibbiyot instituti faoliyatining samaradorligi oshishiga, O‘zbekistonda va jahonda uning shon-sharafi yuksalishiga ishonamiz.

Biz institutning tarixiy ilmiy-ma’rifiy qadriyatlarni asrab-avaylaymiz — Qoraqalpog’iston tibbiyot institutining qariyb 100-yillik tarixida to‘plangan ilmiy, tarbiyaviy an’analarni, institut professor-o‘qituvchilar, xodimlari, magistrлari va talabalari ishonadigan, jamoa tomonidan amal qilinadigan,

qadrlanadigan sharaflanadigan fazilatlar, yutuqlar, munosabatlar, xotira, yodgorliklarini e'zozlaymiz.

“Biz bir jamoa — bir komanda” ruhiga sodiqmiz” – biz institut xodim, talaba va doktorantlari o‘z o‘qish va xizmat faoliyatlarini ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, Vatanga sadoqat, xizmat va o‘qish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning institutga talabi va ishonchini ifodalagan holda bir komanda bo‘lib amalga oshiramiz. Bir birimizga beg‘araz qo‘llab-quvvatlaymiz, yuzaga keluvchi muammolarni yechishda hozirjavob va birdam bo‘lamiz.

“Biz korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga qarshi turamiz” – institut xodim, talaba va doktorantlari korrupsiyaning har bir shakli va ko‘rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo‘lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarini ko‘radilar.

Biz institut Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi va institut “Xodim, talaba, o‘quvchi va doktorantlari tomonidan korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etishga og‘dirish maqsadida murojaat qilish holatlari haqida xabardor qilish to‘g‘risida”gi nizom talablarini so‘zsiz bajaramiz.

“Sharaf kodeksi” ustoz-shogirdlik an‘analariga hamda ustozlarning ma’naviy-axloqiy liderligiga asoslanadi. Har bir kafedra mudiri, dekan va uning o‘rnbosarlari, tyutorlar talaba va doktorantlarga “Sharaf kodeksi”ga mos xulq modelining namunasi bo‘ladilar.

5. Institut professor-o‘qituvchilari va xodimlarining sharaflı burchlari:

Biz — Qoraqalpog’iston tibbiyotinstituti professor-o‘qituvchilari va boshqa xodimlari, talabalari, doktorantlari O‘zbekistonning inson kapitalini yaratishdek mas’uliyatni zimmamizga olganmiz va bundan faxrlanamiz.

Biz vatanparvar, yuksak malakali, institutimizga munosib iqtisodchi shogirdlar yetishtirib, ularning hurmatiga sazovor, ibratli Ustozlar bo‘lamiz.

Biz har bir talaba, doktorantda avvalo insonni, shaxsni ko‘ramiz va ularga Ustozlikni o‘zimiz uchun sharaf deb bilamiz.

Qoraqalpog’iston tibbiyotinstituti professor-o‘qituvchilari va boshqa xodimlari talabaning mehribon va talabchan do‘sti. Biz inson qadrini ulug‘laymiz, har qanday takabburlikka qarshimiz va talabalar bilan muloqotga har doim ochiqmiz.

Biz talabalarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch fazilatlarni tarbiyalash uchun o‘z ustimizda doim ishlaymiz.

Biz o‘z fanimiz bo‘yicha yangiliklarni, xorij tillari, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘rganish bo‘yicha muntazam ishlaymiz.

Biz talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqtiramiz. Yoshlarni kashfiyotlar olamiga olib kirishni o‘zimizning ustozlik burchimiz, deb bilamiz.

Biz - Qoraqalpog’iston tibbiyotinstituti professor-o‘qituvchilari va xodimlari o‘zimizning tashqi ko‘rinishimiz, xulqimiz bilan talabalarga ibrat bo‘lamiz.

Biz ish vaqtidan samarali foydalanamiz, institutning moddiy-texnik ashyolari, mulkini asrab-avaylaymiz

Biz institutimizda “Sharaf kodeksi”ga zid harakatlarning oldini olishga, to‘xtatishga harakat qilamiz.

Talaba va doktorantlarning sharaflı burchlari:

Biz talaba, magistr va doktorantlar Vatanga sadoqat, zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bizning baxtli bo‘lishimizga va Vatanimiz O‘zbekistonni yuksaltirishiga ishonamiz va shu sababli tirishqoqlik bilan o‘qiyimiz.

Biz talaba, magistr va doktorantlar o‘zligimizni anglab, o‘z xarakterimizni kuchaytirib, irodamizni chiniqtiramiz. Chunki ana shundagina biz o‘z kuchimizga tayanib, mustaqil hayotda muvaffaqiyatlarga erisha olamiz.

Biz talaba, magistr va doktorantlar bunyodkor, kreativ fikrlaymiz, chunki odamning fikrlari uning so‘zlariga, xatti-harakatlariga aylanadi. Kim bunyodkor, pozitiv fikrlarni o‘ylasa, u hayotda ham bunyodkor bo‘ladi, vayronkorlikka qarshi turadi.

Biz talaba, magistr va doktorantlar yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal qoidasi asosida yashaymiz, chunki sizga odamlar qanday munosabatda bo‘lishlarini istasangiz, ularga shunday munosabatda bo‘lish kerakligiga ishonamiz.

Biz talaba, magistr va doktorantlar bir necha xorijiy tilni, axborot texnologiyalarini, o‘z mutaxassisligimizni yuksak darajada egallaymiz, chunki biz shunday qilmasak, o‘simizga, O‘zbekistonimizga, oilamizni farovon qila olmaymiz.

Biz talaba, magistr va doktorantlar QTI sha’nini yuksak maqomda saqlaymiz, kundalik hayotda va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarda namunali xulq-atvor bilan institut imijini yuksaltiramiz.

Biz talaba, magistr va doktorantlar institutni bitirib, qayerda, qaysi lavozimda ishlashimizdan qat’iy nazar, Qoraqalpog’iston tibbiyotinstituti shon-sharafiga munosib bo‘lamiz.

Ustozlar ishonchini oqlaymiz.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga sadoqat bilan xizmat qilamiz.

4. “Sharaf kodeksi”ning qo‘llanilishi

“Sharaf kodeksi”da belgilangan ma’naviy-axloqiy xulq normalarining munosib ijrosini yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini ta’minalash uchun QTI Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi huzurida “Sharaf kodeksi”ning vakolatli nozirlari guruhi tuziladi.

Qoraqalpog’iston tibbiyotinstitutida institut rektori raisligida jamoatchilik asosida ish yurituvchi “Sharaf kodeksi”ning vakolatli nozirlar guruhi 3 yil muddatga tuziladi va guruh a’zolarining ro‘yxati QTI rektori buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

“Nozirlar guruhi” a’zosi: o‘z xohishiga ko‘ra yoki amaldagi qonun hujjatlari, institut ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda sharaf kodeksi talablariga zid faoliyat bilan shug‘ullanganda; institut xodimlari tomonidan sharaf kodeksi nozirini almashtirish to‘g‘risida murojaat qilinganda QTI rektori buyrug‘i bilan muddatidan oldin guruh a’zoligidan chiqarilishi mumkin.

QTI yoshlar bilan ishslash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori "Sharaf kodeksi"ning vakolatli nozirlar guruhi raisining o'rinosini hisoblanadi.

"Nozirlar guruhi"ga fakultetlardan 1 nafar yuksak ma'naviyatli, talabchan, pedagogik-psixologik bilimlar, analitik, notiqlik qobiliyatlarga ega, ijtimoiy faol professor-o'qituvchi, 1 nafar tyutor, 1 nafar xotin-qizlar faoli va 1 nafar faol talaba kiritiladi.

5. "Sharaf kodeksi" nozirlarining huquqlari

"Sharaf kodeksi"ning nozirlari O'zbekistonda amalda bo'lgan qonunlar, QTI Ustavi, "Odob-axloq qoidalari" hamda ushbu Kodeks doirasida faoliyat yuritadilar.

Shuningdek, QTIda "Sharaf kodeksi"ni joriy qilish va undagi qoida va normalarga amal qilinishi ustidan aniq mezonlar asosida ma'naviyat bo'limi yeki boshqa tegishli bo'lim bilan hamkorlikda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

"Sharaf kodeksi"ni joriy qilish va undagi qoida va normalarga amal qilish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

"Sharaf kodeksi"ni joriy qilish va undagi qoida va normalarga amal qilish bo'yicha profilaktik ishlarni olib borish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olish;

Qabul qilinayotgan ichki normativ hujjatlarning "Sharaf kodeksi" qoida va normalariga mosligini ekspertizadan o'tkazish;

"Sharaf kodeksi" nozirlari faoliyati ochiqlik va oshkorlik prinsiplari asosida olib boriladi va institut OAV vositalari orqali yoritib boriladi.

Institut, fakultet Ilmiy kengashlarida, Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishlarida "Sharaf kodeksi" normalarining ijrosi haqida chiqishlar qilish;

Rektorat va fakultet rahbariyatiga "Sharaf kodeksi"ga namunaviy rioya qiluvchi professor-o'qituvchilar, xodimlar, talaba va doktorantlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

Attestatsiya komissiyalari ishida ishtirok etish;

Professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar tomonidan "Sharaf kodeksi" qoida va normalarining buzilish holatlari, ularning sabab va oqibatlarini o'rganish va institut, fakultet, kafedralarda muhokamasini uysushtirish huquqlariga ega.

6. "Sharaf kodeksi" nozirlarining vazifa va majburiyatlar

"Sharaf kodeksi" noziri o'z xulqi bilan "Sharaf kodeksi"ga rioya qilishning shaxsiy namuna ko'rsatishi;

Ma'naviy-axloqiy tahlil, tarbiya masalalari bo'yicha o'zining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirib borishi;

Professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar va doktorantlar orasida Kodeks va unga amal qilishning mohiyati to'g'risida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish;

QTI ommaviy axborot vositalarida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida "Sharaf kodeksi"ning ahamiyati to'g'risida chiqishlar qilish;

QTI jamoasida ma'naviy muhitning sog'lom va barqarorligini ta'minlash uchun amaliy, natijali ishlar qilish;

xodimlar orasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlarini olib borish;

manfaatlar to‘qnashuvi, xodimlar orasida xizmat yuzasidan muammoli vaziyatlar yuzaga kelgan holatlarda masalaga “Sharaf kodeksi” nuqtayi nazaridan baho berish;

ayrim professor-o‘qituvchilar, xodimlar, talabalar, doktorantlar tomonidan “Sharaf kodeksi” normalarining buzilish holatlariga tegishli fakt va holatlarni “Sharaf kodeksi” nozirlar guruhi muhokamasiga olib chiqish;

7. “Sharaf kodeksi”ga rioya qilish ustidan nazorat qilish

“Sharaf kodeksi”ga rioya qilinishi ustidan jamoatchilik nazorati QTI “Sharaf kodeksi” nozirlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

QTI professor-o‘qituvchilari, xodimlari tomonidan ushbu kodeks normalarining buzilishi oylik mukofot, rag‘batlantirish yoki kompensatsiyaning to‘liq yoki bir qismi miqdorida mahrum qilinishi, intizomiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortilishi kabi oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

“Sharaf kodeksi” qoida va normalari to‘plangan tajribalar asosida QTI jamoatchiligi vakillari ishtirokida har yili bir marta muhokama qilinib, uning matniga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

